



Go'zal PRIMOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: primovagozal@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent N.Alimov taqrizi asosida

TALABALARDA O'QUV-BILUV MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada talabalarda o'quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlili hamda ta'lim jarayonidagi metod, ya'ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilishning turlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek o'quv mashg'ulotlarida talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasining roli va didaktik jarayonning amaliy-pragmatik mexanizmlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quv-biluv motivatsiya, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteri, anglash, taqqoslash, qiyoslash, mushohada etish.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье представлен анализ особенностей процесса развития учебно-познавательной мотивации у студентов, а также метода в образовательном процессе, то есть метода, видов передачи и получения информации. Также на учебных занятиях анализировалась роль учебной мотивации студентов и практико-прагматических механизмов дидактического процесса.

Ключевые слова: учебная мотивация, характер передачи и приема информации, понимание, сравнение, сопоставление, наблюдение.

FEATURES OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF LEARNING MOTIVATION IN STUDENTS

Annotation

The article presents an analysis of the features of the process of development of educational and cognitive motivation among students, as well as the method in the educational process, that is, the method, types of transmission and receipt of information. Also during the training sessions, the role of students' educational motivation and practical-pragmatic mechanisms of the didactic process were analyzed.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar insonning hayoti davomida sifatli ta'lim olish, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun ta'lim muhitida mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Globalashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim yoshlarda dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi. Uning mazmuni qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimida ifodalanadi. Jamiyat a'zolarining maqsad-

ga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali" ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash-bularning barchasi ta'lim natijasida vujudga keladi.

Motivatsiya nazariyasi inson organizmining normal holatidagi yagona, yaxlit bir butun mexanizm sifatida funksiyalarini bajarishini nazarda tutadi, biroq, bu jarayonda yakka tartibdagi segmental reaksiyalar, shuningdek, dissotsiatsiya, dezintegratsiya motivlarini istisno va e'tiborsiz qoldirish mumkin emas, degan fikrga asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Motivatsiya" va "motiv" tushunchalariga aniqlik kiritish maqsadida biz tomonimizdan pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid turli adabiyotlar (A.Maslou, KLevin, N.Kuzmina, A.Rean, S.G.Rubinshteyn, I.S.Kon, I.A.Zimnyaya, E.E.G'oziev, V.M.Karimova, N.A.Muslimov) tahlil etildi.

Tahlil natijalaridan aniqlanishicha, motiv - shaxsning ayni paytdagi ichki holati, ichki qiziqishi, niyati va ehtiyoji sifatidagi holatidir.

I.Valixanov ta'kidlashicha, o'quv-biluv motivatsiyani tuzilishli komponentlari initsiatsiya motivatsiyasi (faoliyatga chorlovchi), seleksiya motivatsiyasi (maqsad tanlashga sabab bo'luvchi), amalga oshirish motivatsiyasi (boshqarishni, mavjud harakatni bajarilishini amalga oshirilishini nazorat qilishni ta'minlaydi), amalga oshirilganidan keyingi motivatsiya (harakat yakunlanishini

ta'minlaydi va boshqa harakatga chorlaydi). Demak, talabalardagi o'quv-biluv motivatsiyasi ta'lim jarayoniga ongli munosabatda bo'lish, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish, bilimlarni faol o'zlashtirishga talabalarni qo'zg'atuvchi ehtiyoj, maqsadlar tizimi hisoblanadi.



1-rasm. Talabalarda o'quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlari

Talabalarda o'quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish uchun faoliyat va munosabatni e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai sifatida ta'limning tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish; o'zini-o'zi o'qitishning intensivligi; tahsil oluvchining verbal va somomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish lozim. Bu o'rinda o'quv-biluv faoliyat ta'limning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, didaktik jarayon ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalarda aks etadi. Talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasi maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi; uning insonparvarlashuvi; fan, texnika integratsiyasi, ta'limga yaxlit(kompleks) yondashuv; shaxsga talabchanlik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; ta'limning tizimligi va uzluksizligiga bog'liq.

Ma'lumki, o'quv-didaktik yo'nalishlarning institutsional belgilari turli ta'lim konsepsiyalari va

Talabalarda o'quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega. Quyidagi sxemada mazkur hususiyatlar aks ettirilgan (1-rasmga qarang):

yondashuvlari bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual turlarida farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim jarayonida asosiy vazifa ta'lim-tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko'nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirish, tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan qolda marifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Texnika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida o'quv-biluv motivatsiyani rivojlantirish ularning shaxs sifatida oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o'ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Didaktik jarayonning amaliy-pragmatik mexanizmlarini tadqiq qilar ekanmiz, ta'lim jarayonidagi metod, ya'ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab bir necha turlarga bo'linishini kuzatdik (2-rasmga qarang):



2-rasm. Axborotni uzatish va qabul qilish turlari

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil'mlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash uslublari

Uchinchi guruh - amaliy mehnat harakatlari orqali ta'lim berish, talabalarda konstruktorlik sifatlarini rivojlantirish;

To'rtinchi guruh - yaxshi bajarilgan ishlarni ma'qullash, minnatdorlik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Talabalardagi o'quv-biluv motivatsiyasi masalalarini o'rganish sub'ektning kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorgarligi tizimiga shakllantiruvchi element roli berilganligini ko'rsatadi. Hozirgi bosqichda motivatsiyaga tayyorlik

muammosining dolzarbligi, boshqa qadriyatlar qatorida, talabalarning raqobatbardoshlikka intilishlarini shakllantirishda ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish bilan bog'liq.

Shunday qilib, texnika ta'lim muassasalarida o'qish davrida kasbga qo'yiladigan talablar, uni egallashning asosiy motivlari tarkibi, ma'naviy qadriyatlar, innovatsion texnologiyalarning paydo bo'lishi munosabati bilan operatsion va texnik sohani kengaytirib, kasbni o'zlashtirish jarayonida, o'qitish va kasbiy faoliyat ta'lim sub'ektning motivatsion faoliyat tarkibini rivojlantiradi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarda pedagogik shart-sharoitlar, jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar inobatga olinishi lozim.

Xulosa. Tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari o'rganilganda,

bo'lajak mutaxassislar, ya'ni bugungi kun talabalarida o'quv-biluv motivatsiya o'quv maqsadlari taksonomiyasi doirasida amalga oshiriladi. Bunday o'quv mashg'ulotlarida talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasi yangi mavzuni to'liq va yaxlitlikda idrok etish, o'rganilayotgan voqealar va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni tasavvur etish, ichki

qonuniyatlarini anglash, taqqoslash, qiyoslash, mushohada etish, umumlashtirishda samaradorlikka erishganligi, bosqichma-bosqich aqliy operatsiyalarning rivojlanish jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish, maqsadlar va vazifalarni aniq taqsimlash, mustaqil qaror qabul qilishda o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Коршунова Н. Л., Цзян Нань. Образование и наука в современном университете // Учёные записки ЗабГУ. Сер. Педагогические науки. 2017. Т. 12, № 2. С. 6–13. DOI: 10.21209/2542-0089-2017-12-2-6-13.
2. Краевский В. В. Методология педагогики: Пособие для педагогов-исследователей. - Чебоксары: Изд-во Чуваш, ун-та, 2001. - 244 с.
3. Методология и методика дидактического исследования; Загвязинский В. И. — М.: Педагогика, 1982. — 160 с.
4. R. Kadirjanovich, A. N. Isayevna, P. G. Gulomjonovna and P. S. Botir qizi, "Improving the Methodology of Teaching Specialized Subjects in The Preparation of Future Computer Engineering on The Basis of Innovative Technologies," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 125-130, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286726
5. Primova G.G. The motivation of student cognition activities. journal of philosophy Readings.org 5281/zenodo. 4915841(276-280)ISSN 2036-4989.
6. Primova G.G. Features use of internet technologies in education Босма International Multidisciplinary Scientific Journal ISSN: 2091-573X Vol. 1 Issue 1, June-2021
7. Примова Г.Ф. Та'limni raqamlashtirish masalalari aralash va gibrit o'qitish texnologiyalari // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat Universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2021-yil 10-son